

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 167 964,6mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 7,7 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi o'tgan yilning mos davri narxlariga nisbatan 119,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 9,1 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	130 439,5	167 964,6	107,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	129 221,2	166 736,2	107,7
mahsulotlarga sof soliqlar	1 218,3	1 228,4	108,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	129 221,2	166 736,2	107,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 621,7	14 300,7	104,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	100 445,1	133 291,1	108,2
sanoat	94 653,8	126 697,8	108,3
qurilish	5 791,3	6 593,3	106,5
xizmatlar	16 154,4	19 144,4	107,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 009,8	5 999,2	109,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 284,8	2 922,6	115,5
boshqa xizmat tarmoqlari	8 859,8	10 222,6	104,4

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 152 238,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	99,1	99,3
mahsulotlarga sof soliqlar	0,9	0,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9,8	8,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	77,7	80,0
sanoat	73,2	76,0
qurilish	4,5	4,0
xizmatlar	12,5	11,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3,9	3,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,8	1,8
boshqa xizmat tarmoqlari	6,8	6,0




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 99,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 0,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 8,6 % ni, sanoat tarmog'i 76,0 % ni, qurilish 4,0 % ni va xizmatlar sohasi 11,4 % ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,4 f.p. (o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 0,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 6,0 f.p. (o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 5,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 1,0 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 0,9 f.p. (o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 1,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 8,6 %), sanoatda – 108,3 % (76,0 %), qurilishda – 106,5 % (4,0 %), xizmatlar sohasida – 107,7 % ni (11,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,8 % (3,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,5 % (1,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,4 % dan (6,0 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



8,2 %

YAHM

7,7 %



3,6 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,3 %



8,3 %

Sanoat

8,3 %



20,7 %

Qurilish

6,5 %



7,2 %


Xizmatlar

7,7 %



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyatori indeksi o'tgan yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 119,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 123,6 % va xizmatlarda – 110,1 % qayd etildi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 35 170,1 mlrd. so'mni tashkil etdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 30 417,0 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 21,1 % ni (o'tgan yilning yanvar-dekabr oylarida – 23,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining o'sishi bilan bog'liq.

Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

30 417,0

23,5 %

2025- yil

35 170,1

21,1 %

